

## ILONSOY HUDUDIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zarafshonning o'rta oqimida joylashgan Ilonsoy mozor qo'rg'onlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi hamda oxirgi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va erishilgan natijalar haqida ma'lumotlar berilgan. Markaziy Sug'dning janubiy qismi hisoblangan Qoratepa tog' tizmasi hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ushbu hududda ham ko'chmanchi chorvador xalqlar yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. So'ngi tadqiqotlar natijasida yangi topilgan arxeologik yodgorliklar va mozor qo'rg'onlar ilmiy tahlil etilgan. Ilonsoy mozor qo'rg'onlari arxeologik jihatdan ochib o'rganilishi natijasida hudud bo'yicha yangi ilmiy ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

**Kalit so'zlar:** Qoratepa tog' tizmasi, Ilonsoy, Antik davr, Ilk o'rta asrlar, Sopol buyumlar.

### О НОВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ, ПРОВЕДЕННЫХ В РЕГИОНЕ ИЛОНСОЙ

**Аннотация.** В данной статье представлены сведения об истории археологических исследований, проведённых в могильниках Илонсой, расположенных в среднем течении Зарафшана, а также о раскопках последних лет и достигнутых результатах. Археологические исследования, выполненные на территории горной системы Каратепа, расположенной в южной части Центральной Согды, свидетельствуют о проживании здесь кочевых скотоводческих племён. В ходе последних исследований были выявлены новые археологические памятники и курганы, которые подвергнуты научному анализу. Археологическое изучение могильников Илонсой позволило получить новые научные сведения по истории освоения данной территории.

**Ключевые слова:** Горная система Каратепа, Илонсой, Античный период, Раннее Средневековье, Керамические изделия.

### ABOUT THE NEW ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED IN THE ILONSOY REGION

**Annotation.** This article presents information on the history of archaeological investigations carried out at the Ilonsoy burial mounds located in the middle reaches of the Zarafshan River, as well as on the excavations conducted in recent years and the results achieved. Archaeological research conducted in the Karatepa mountain system, situated in the southern part of Central Sogd, indicates that nomadic pastoralist communities once inhabited this area. Recent studies have led to the discovery of new archaeological sites and burial mounds, which have been subjected to scientific analysis. The archaeological exploration of the Ilonsoy burial mounds has provided new scholarly data regarding the historical development and settlement processes of the region.

**Keywords:** Karatepa Mountain System, Ilonsoy, Antiquity, Early Middle Ages, Ceramic Artifacts.

**KIRISH:** Bizga ma'lumki dunyo xalqlari turmush tarzi xo'jaligi qadimdan tabiiy geografik xususiyatlarga bog'liq holda, asosan, ikki xil tarzda shakllangan. Bulardan birinchisi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq va ikkinchisi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi tarzida shakllangan. Chorvadorlarning yashash turmush tarzi, iqtisodiy xo'jaligi,

ijtimoiy hayoti va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ularning rivojlanish taraqqiyoti, turli davr jamiyatlari ma'naviy qadriyatlarini bilan uyg'unlashuvi va madaniy aloqalar yo'nalishidagi o'rni kabi masalalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda dunyo tarixida chorvadorlar xalqlar o'tmishi bilan shug'ullanish bo'yicha ulkan tajriba to'plangan va u o'zining metodologik asosiga ega. Bugungi kunda chorvadorlar masalasida ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, o'troq dehqon va ko'chmanchi chorvadorlarning madaniy aloqalari, ko'chmanchilar migratsiyasining xususiyatlari, o'troqlashuvi va etnik jarayonlarga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Olib borilgan so'ngi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, dasht chorvador qabilalari O'rta Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida mil. avv. XVI-XIII asrlar mobaynida tarqalgan. Uni asoslovchi ko'plab yodgorliklar Zarafshon vohasida o'rganilgan. Ular manzilgohlar, uy-joylar qoldiqlari, tog' konchilik bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish ob'ektlari metallurgiya markazlari hamda mozor qo'rg'onlardan iboratdir.

Malumki O'rta Zarafshon vohasi Tarixiy manbalarda markaziy Sug'd deb nomlanib ushbu hudud insoniyat hayot kechirishi uchun qulay tabiiy mintaqalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Samarqand vodiysi O'zbekistonning janubi-sharqiy tomoni, shimoliy tomonida g'arbiy Tiyanshan tog' tizmasining Nurota tog'i, Turkiston tog'i, Janubiy tomonida Pomir-Oloy tog' tizmasining Zarafshon tog'lari bilan o'ralgan. Sharqdan g'arbga cho'zilgan tor va uzun vodiylar hisoblanadi. Vodiyning sharqdan g'arbga uzunligi taxminan 200000 metr, shimoldan janubga kengligi 10000-60000 metr, umumiy relyefi sharqda baland, g'arbda past. Pomir tog'laridan boshlangan Zarafshon daryosi Tojikistonning Panjikent vodiysidan oqib o'tadi. Sharqdan g'arbga oqib Samarqand vodiysiga kirgandan keyin kanallarga tarqagan va butun vodiyning dehqonchilik taraqqiyotining asosini tashkil qilgan suv manbasiga aylangan.[1-192]

XX asrning 60-yillarning boshlarida, arxeolog olimlar Zarafshon daryosining o'rta oqimlarida tizimli tarzda arxeologik qidiruv va qazuv tadqiqot ishlari boshlandi, tizimli arxeologik qidiruv va qazuv ishlari davomida chorvadorlarga tegishli qabrlar aniqlandi. Eng ko'pi Samarqand vodiysining janubiy tomonidagi Agalik qabristoni,[2-56/72] Mironkul qabristoni,[3-66/80]. Sazagan qabristoni va Samarqand vodiysining shimoliy tomonidagi Oqjartepa qabristoni.[4-57/70] Bu qabrlarning ko'pchiligi davri miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlar orasiga tegishli. Olimlarning fikricha ular saklar, sarmatlar, yueji, eftalitlar kabi manbalarda eslatilgan xalqlar bilan bog'liq.

1999-yildan boshlab, Italiyaning Bolonya universiteti Samarqand arxeologiya instituti bilan hamkorlikdagi guruh Samarqand vodiysining o'rta qismi, janubiy tomonlaridagi turli davrga oid qadimgi yodgorliklarda katta maydonlarda arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini olib borishdi. Qidiruv ishlarida sun'iy yo'ldosh tasvirlari tahlili, er yuzasidagi topilmalarni yig'ish, topilmalarning

teodolit yordamida joylashuvini belgilash, RTK xaritalash, 3D modelini tayyorlash va boshqa metodlardan foydalanildi. Yodgorlikning shakli xususiyati, o'lchami, saqlanish holati bo'yicha batafsil qayd etib borildi. Shu bilan birga, yodgorliklarning morfologik xususiyatlarini kuzatish va

ilmiy tahlillarni birlashtirib, ularning davriga aniqlik kiritildi. 2012-yil holatiga ko'ra, Italiya-O'zbekiston arxeologik guruhi 1400 ga yaqin qadimiyat belgilari izlarini o'rgandi, Arxeologik guruh o'rganilgan yodgorliklarni sun'iy tepaliklar, qabrlar va past uyumlar, yodgorlikning tashqi hududlari, qadimgi sun'iy suv kanallari va boshqalar. Tadqiqot

natijasi shuni ifodalaydiki, er yuzasida kuzatilgan topilmalarning katta qismi miloddan avvalgi VI milodiy VIII asrlarga tegishli, ya'ni Ahmoniylar davridan arablar bosqini davrigacha.

Yuqorida qayd etilgan mavzini ilmiy tahlil etish orqali yozma manbalar hamda ilmiy adabiyotlarning bir necha uslublari, jumladan yuqoridagi ma'lumotlarning qiyosiy analogik tahlili, tadqiqotlar natijasida so'nggi arxeologik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar, ularning davriy ketma-ketligi tartibida hamda real aniqlikda samarali foydalanildi.

Joriy yilda O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' tizmasining shimoliy yon bag'rida joylashga Ilonsoy soyining sharqiy qismida 3 ta hududda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilib

68 ushbu joydan bir qancha qabr qo'rg'onlar ochib o'rganildi. Ilonsoy hududi Samarqand shahridan 20 km janubda joylashgan bo'lib o'tgan yillar mobaynida Samarqand Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari tomonidan bir necha bor arxeologik tadqiq etilib 700 ga yaqin qoyatosh suratlari aniqlangan. Dastlab qazuv tadqiqot ishlari 3 ta alohida qazuv nuqtalariga ajratilib ushbu nuqtalar 1A, 2B va 3C nomlari bilan belgilab olibdi.

Ajratilgan 1A hududda 3ta qabrda qazuv ishlari olib borilib ushbu qabrlarining yuza qismi to'liq tosh bilan qoplanganligi va chetki yuza qismiga aylana shaklda toshlar terilganligi kuzatiladi. (Rasm-1)

1-qabrning o'lchamlari 2,50 x 2,20 m balanligi esa qabr joylashgan joy qiya hudud hisoblanib 20-25 sm ni tashkil qiladi. Qabrning tashqi ko'rinishi o'rtacha kattalikdagi soy toshlaridan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin ushbu toshlar aynan ilonsoy soyi toshlariga o'xshash. Yuqoridan qaralganda, konstruktsiya "C" harfiga o'xshash shakl hosil qiladi; uning g'arbiy tomoni sharqqa nisbatan yaxshiroq saqlangan. Qabr shimol-janub yo'nalishidagi uzunligi taxminan 2,50 metr, g'arb-sharq bo'yicha dastlab 2,20 metrga etgan deb taxmin qilinadi. Muhim jihati shundaki, qabrning yuqori qismida qayta ishlatilgan uch, ehtimol to'rt dona o'rta qismi teshik 40-60 sm li aylana shakldagi tegirmon toshi aniqlangan.

Mazkur qabr zamonaviy davrga oid aralashuvdan zarar ko'rgan bo'lishi mumkin. Mazkur zamonaviy buzilishdan tashqari, qabrning asl tuzilishi to'g'ri burchakli dromosdan iborat bo'lib, uning yo'nalishi shimoli-g'arb-janubi-sharq. Dromosning pastki qismida, uning asosiga kirish joyida marhum joylashtirilgan er osti dafn kamerasi qazilgan.

1-qabrning dromosining o'lchami 2.00 x 1.59 x 0.79 metr bo'lib, yo'nalishi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa. Uning tubi yassi, devorlari tik. Kesimlarda toshlar va hayvonlarning qazigan kovaklari ko'p uchraydi.

Dromosning g'arb tomonida er ostiga qazilgan dafn kamerasi aniqlangan. Uning o'lchami 1.40 x 1.10 x 0.80 metr bo'lib, taxminan shimol-janub yo'nalishida joylashgan. Kamera ichida kattalar jinsiga mansub skelet topilgan. Skelet shimol-janub bo'ylab yotgan, bosh qismi shimolda. Jasadning ustida pishiqsiz xom g'ishtning parchalanib ketgan bo'laklari aniqlangan. Qo'llar tananing ikki yonida to'g'ri holatda bo'lgan, chap qo'li tos sohasiga qo'yilgan.


Bosh suyagi parchalanib tushib ketganligi sababli, uning dastlabki yo'nalishi ya'ni g'arbg'a qaratilgan bo'lgan-bolmaganligi nomalum Tizza qopqog'ining o'rindan chiqib ketgan holati, o'ng va chap o'mrov suyaklarining tikligicha qolishi va qafas suyagining ichkariga cho'kishi jasad bo'shliq ichida parchalangani va tana atrofida bo'sh joy mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Qabrning umumiy chuqurligi — qadimgi er yuzasidan dafn kamerasining tubigacha — taxminan 1,60 metrni tashkil qiladi.

2-qabr esa 2 x 1,2 m ni tashkil qiladi. U tuproq va o'rtacha kattalikdagi, qirralari yumaloq bo'lgan toshlardan tashkil topgan bo'lib, ehtimol u ham Ilonsoy toshlaridan keltirilgan keltirilgan. Tosh elementlar kam bo'lib, asosan g'arbiy chekka bo'ylab — relyefning pastroq qismida to'plangan. Ushbu qabrning ham yuza qatlamidan siniq holatdagi bir dona o'rta qismi teshik shakildagi tosh qayd etilgan. Dromos 2.06 x 1.20 x 0.98 metr o'lchamlarga ega bo'lib, shimoli-sharqdan janubi-g'arbg'a tomon yo'nalgan. Dromosning g'arbiy chekkasida er qatlamiga o'yib ishlangan dafn kamerasi joylashgan bo'lib, u 1.67 x 1.15 x 0.62 metr o'lchamlarga ega. Qabrda 1dona odam skelet qoldig'i osmonga uzala yotqizilgan, qo'llari tana bo'ylab yon tomonga uzatilgan holda topildi. Skelet juda yaxshi saqlangan. 1-qabr o'xshash bosh suyagi orqa tomonga qulab tushgan, shuning uchun aslida boshning g'arb tomonga qaratilgan-qaratilmaganini aniqlashning iloji bo'lmadi. O'ng tizza o'z anatomik holatida saqlangan, biroq bir qator belgilar vertikalashgan o'mrov suyaklari, tos suyaklari, qovurg'alar va joyidan siljigan bosh suyagi tananing bo'shliq ichida parchalangani, ehtimol jasad ustida ilgari bo'sh joy bo'lganini ko'rsatadi.

3-qabr esa 1,60 x 1,40 sm ni tashkil etadi. Ushbu qabrlarning barchasida dastlab dromos qismi ochilib keyin esa g'arbda joylashgan lahad qismiga kiriladi. Lahad qismiga kirish katta va kichik shakldagi soy toshlari bilan qoplangan. Qabrlarda jasadlar bosh qismi shimolda yuzi esa nisbatan qiblaga qaratilganligi uzala yotgan holatda ekanligi kuzatiladi. Qabrlarda sopol buyumlar taqinchoqlar va shunga o'xshash arxeologik topilmalarga duch kelinmadi.

2B nuqtada esa dastlab 2ta tosh konstruksiyali qabr ochib o'rganildi. Ushbu qabrlar ham tashqi yuza qismida mayda va katta hajmdagi toshlar bilan qoplanganligi kuzatiladi. 1-qabr shimol janub yo'nalishida ovalsimon ko'rinishga ega uzunligi 2,3 x 1,3m tashkil etadi. Balandligi 30-40 sm. 2- qabr esa ushbu birinchi qabrning shimoli sharqiy qismida joylashgan bo'lib qabrning o'lchamlari 1,9 x 0,9 tashkil etadi balandligi esa 20-30 sm. Ushbu 2B nuqtada qabrlar ham aynan 1A hududdagi qablarga o'xshash ekanligi kuzatiladi. Ushbu joyda ochilgan qablarda ham arxeologik topilmalarga duch kelinmadi.

3C nomli hududda dastlab 3,4x3,6 m kattalikdagi qazuv mavdoni ajratib olindi. Ushbu joyda 3 ta qabr deya taxminiy joy ochib o'rganildi. Dastlab ushbu maydonning yuza qismi chim qatlam olinishi natijasida katta va kichik o'lchamdagi toshlardan tashkil topgan to'rtburchak shakldagi 2,7x 1,9 m kattalikdagi shimoli g'arbiy yo'nalishga ega bo'lgan qabr o'rni deya taxmin qilingan joy ochildi. Ushbu joyda qazuv ishlari davom ettirilishi natijasida bu alohida ajralgan tosh konstruksiya qabr yoki xona o'rni emasligi aniqlandi. Shundan so'ng qazuv ishlari yana pastga qarab davom ettirilishi natijasida ajratilgan ushbu kvadratning 70 sm chuqurlikda sharqiy qismida qabr o'rni deya ajratilgan chetki qismida toshlar mavjud joy oniqlandi. Ushbu joy ochi ko'rilishi natijasida kichik shakldagi qabr ekanligi va nisbatan yomon holatda saqlanga inson suyak qoldiqlari chiqishi qayd etildi. 3C nomli kvadratning g'arbiy qismida ham 70 sm chuqurlikda qabr o'rni aniqlandi. Ushbu qabrning ham chetki qismiga toshlar terilganligi qabrlab esa oddiy yama shaklida ekanligi aniqlandi. Ushbu joydan qabrning bosh qismi tomonidan o'rta qismi teshik kichik shakldagi taqinchoqlar chiqishi kuzatildi.



1-2-3 qablarda olib borilgan arxeologik qazishmalarning umumiy ko'rinishi

Ilonsoy hududida olib borilgan arxeologik qazuv ishlari davomida to'plangan malumotlar shuni ko'rsatadiki, Ilonsoy tepa hududi uzoq va murakkab tarixni boshdan kechirgan. Dastlab, alohida ajralgan markaziy maydonga ega bo'lgan katta to'rtburchak qismi inshoot o'rni bo'lgan bo'lishi mumkinligi keyinchalik esa ushbu joy qabriston sifatida foydalanilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Qabrlarning joylashuvi va kesishgan xususiyatlarning mavjudligi, murakkab stratigrafiya va ilgari boshqa maqsadlar uchun belgilangan tepaliklardan qayta foydalanish Ilonsoy tepa hududi keyingi bosqichida nekropolga aylanganligini ko'rsatadi. Qazuv ishlari davomida topilgan sopol parchalarining birlamchi taxminiy xulosasiga ko'ra ushbu joy milodiy IV-V dan boshlab foydalanib kelingan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonning Samarqand vodiysi Janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlar hisoboti. Ma Jian PhD (Shimoli-g'arbiy universiteti Madaniy meros institute),

- 70 Amridin Berdimurodov Ergashevich T.f.n. katta ilmiy xodim (Madaniy meros agentligi Y.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institute), ....va boshqalar O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Farg'ona davlat universiteti. FarDU. Ilmiy Xabarlar. 2023-yil 6-son
2. Обельченко О. В. Агаликсайские курганы. История материальной культуры Узбекистана, 1972, № 9: 56–72.
  3. Обельченко О. В. Сазаганские курганы. История материальной культуры Узбекистана, 1966, № 7: 66–80.
  4. Обельченко О. В. Могильник Ак-Джар-тепа. История материальной культуры Узбекистана, 1962, № 3: 57–70.